

## 10-dars

### Darsning mavzusi: Undoshlari yonma-yon kelgan so‘zlarning talaffuzi va imlosi

**Darsning ta’limiy maqsadi:** o‘quvchilarning unli va undosh harflarning o‘ziga xos xususiyatlari, jarangli va jarangsiz undoshlarning talaffuzi va imlosi haqidagi bilimlarini aniqlash va mustahkamlash; undoshlari yonma-yon kelgan so‘zlar talaffuzi va imlosi, so‘zlarni bo‘g‘inga bo‘lish va ko‘chirishni, so‘zlarni bo‘g‘in-tovush va tovush-harf jihatidan tahlil qilishni bilish; talaffuz me’yorlariga rioya qila olish, bo‘g‘in ko‘chirish qoidasiga rioya qila olish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** o‘quvchilarni insonni go‘zal qiladigan kamgaplik,tartiblilik,do‘siga sadoqat, komil insonning fazilatlarini tushuntirish; o‘z fikrini boshqa manbalarga tayangan holda asoslay olish ko‘nikmasini shakllantirish; o‘zining xato va kamchiliklarini to‘g‘ri tushunib, o‘zini nazorat qila olish va xatolarini tuzatishga harakat qilish, kattalarga, kichiklarga va o‘rtoqlariga yordam berish.

**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:** o‘quvchilarning lug‘atini boyitish; talaffuz me’yorlariga, bo‘g‘in ko‘chirish qoidasiga rioya qila olish, mavzuga oid so‘zlarni og‘zaki va yozma nutqda, o‘zlashtirilgan leksik birliklarni matnda qo‘llay olish.

**Darsning turi:** mustahkamlovchi dars

**Darsning metodi:** suhbat, mustaqil ish metodi, “*Kim bilimdon?*” ta’limiy o‘yini, “*O‘yla, izla, top!*” topshirig‘i

**Darsning jahozi:** mavzuga oid rasmlar, so‘zlar yozilgan kartochkalar, multimedia ilovalari.

**Darsning borishi**

**I. Tashkiliy qism.**

- salomlashish;
- davomat;
- ma’naviyat daqiqasi.

**II.O‘tilgan mavzularni mustahkamlash.**

Uyga berilgan 54-mashq tekshiriladi. O‘quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

-So‘z oxirida kelgan har xil undoshli so‘zlarni o‘qing.

-So‘z oxirida kelgan bir xil undoshli so‘zlarni yozing.

### Husnixat daqiqasi:

Kichik “t” harfi osti ilmoqli uzun tayoqchadan iborat bo‘lib, belbog‘i osti ilmoqli uzun tayoqchaning o‘rtadan yuqori qismiga to‘lqinsimon chiziqcha shaklida yoziladi.

Daftarga bir qator kichik “t” harfini va shu harf bilan bog‘langan so‘zlarni yozadilar: tabiat, tabrik, tol, tuya, terak, tovuq.

**Eshituv diktanti.** O‘qituvchi so‘zlarni aytadi, o‘quvchilar bu so‘zlarni eslab qolib, ichida bo‘g‘inga bo‘lib, diktantni yozadilar.

*Texnika, mutaxassis, tuhfa, tabassum, tabarruk.*

O‘qituvchi o‘quvchilar diktantni yozib bo‘lishgacha, so‘zlarni doskaga yozadi. O‘quvchilar yozganlarini doskaga qarab tekshiradilar.

### Dam olish daqiqasi

*Yerda bolalar ko‘p-ko‘p,  
Ko‘kda bulutlar to‘p-to‘p.  
Bolalar va bulutlar  
Bir-biriga o‘xshar xo‘p.  
Yerda bolalar tinmay  
Yugurgan payt vaqt chog‘.  
Bulutlar ko‘kda suzib,  
o‘ynashar quvlashmachoq!*

### III. Mustahkamlash.

Shundan so‘ng o‘tgan darsni mustahkamlash uchun **55-mashq** “Kim bilimdon?” ta’limiy o‘yinidan foydalanib, bajariladi. So‘zlarni ikki ustunga ajratib yozish topshirig‘i beriladi. Birinchi ustunga yonma-yon kelgan *bir xil* undoshli so‘zlarni, ikkinchi ustunga yonma-yon kelgan *har xil* undoshli so‘zlarni yozing.

BIR XIL UNDOSHLI SO‘ZLAR	HAR XIL UNDOSHLI SO‘ZLAR
ikki	yulduz
rassom	xavfsizlik
tashakkur	topishmoq
dovuchcha	bodring
qattiq	navbatchi
avval	xursand
Muzaffar	shaxmat
	kuchli
	o‘qituvchi

Ushbu so‘zlar ishtirokida gaplar tuzdiriladi.

**56-mashq** o‘quvchilarga o‘qitiladi. Qiziqrli ma’lumotlar o‘quvchilarda qanday taassurot uyg‘otganligi haqida suhbat uyuştiliriladi.

Berilgan gaplar ichidagi yonma-yon kelgan undoshli so‘zlarni ko‘chirib yozish topshirig‘i beriladi.

**So‘zlar:** *Kitning, martagina, tovuqlar, sekund, tayyorlash maqsadida, Hindistonda, Birmada, qarshi, zardob, burga, balandlikka, ko‘proq, vaqt, o‘ljasiga, asrashga.*

So‘ra **57-mashq** og‘zaki bajariladi. “**O‘yla, izla, top!**” topshirig‘i bajariladi.

**Javoblar:** 1-karam, 2-kamalak, 3-ko‘za, 4- piyoz, 5-mushuk, 6-kapalak, 7-xat, 8- tugma, 9-kitob, 10-bulut.

#### **IV. Darsga yakun yasash va baholash.**

Dars yakunidao‘quvchilar joriy darsdao‘zlari egallagan bilimlari va darsdan chiqargan xulosalarini bayon etishadi. So‘ngra dars davomida faol qatnashgano‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

#### **V. Uyga vazifa berish.**

58-mashq sharti tushuntirib beriladi va uni uyda bajarib kelish kerakligi ta’kidlanadi.

**11-dars Nazorat ishi**

**12-dars Nazorat ishi tahlili**